

Islomda O'Ichov Birliklari

Zakirova Jasmina

Qarshi davlat universiteti talabasi

Annostatsiya: Ushbu maqola muqaddas va sharaflı dinimiz Islom dinidagi o'ichov birliklari mavzusi yoritilib, ularning tarixi va tasnifi haqidagi mavzuni yoritib berishga harakat qilinadi.

Kalit so'zlar: islom, mudd, so', bariyd, fals, misqol, jarib, kist, maxtum, deboj, ratl, vasaq, uqiya, gaz.

Har bir o'ichov birligi o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, ularning mavjud bo'lishi insonlar ehtiyojini yengillashtirishga xizmat qilgan. Tarixga nazar solsak insonlar qadimdan o'ichov birliklarini turli xil ravishda namoyon qilib kelgan. Misol uchun :inson tana a'zolaridan barmoq, qo'l, qadam, chaqirim, tirsak kabilarni asos qilib olganlar. Tarixiy manbalarda ham turli xil davrlar davomida bizga notanish bo'lgan o'ichov birliklariga duch kelamiz.

Islom dinida ham o'zining o'ichov birliklari sistemasi ishlangan. Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimda "O'ichovni to'liq berish va to'g'ri tarozi bilan tortish" amiri jamiyatda va nazoratga mos keladigan o'ichov birliklari tizimini ishlab chiqishiga asos bo'lgan.

Islom dini vujudga kelgan diyor Arabiston hududida va ularning zabt etgan o'lkalarda qo'llanilgan vazn va o'ichovlar tizimi yonma-yon mavjud bo'lgan hamda bir-birining o'rnini ba'zan faqat vazifasi yoki nomi bilan aralashib ketgan. Ilk, o'rta asrlar yoki hozirgi zamongacha bo'lgan islom mamlakatlarida qo'llanilgan metrik tizimlarning ajoyib xususiyati ularning xilma-xilligida edi. Garchi ba'zi o'ichov birliklari nomlari masalan, zira dirham yoki ratl islom olamida keng tarqalgan bo'lsada, ularning mutlaq Qadimgi Sharq va Islom olamida o'rtasidagi madaniy uzluksizliklarni anglatuvchi bir nechta asosiy atamalar, chora-tadbirlar majmuasiga qaramasdan, hozirgi zamongacha saqlanib qolgan: ratl (yunoncha litr, "litr"), irdabb (yunoncha artabe, forsha "imkoniyat o'ichovi), matar (yunoncha metres "metr"), kintar (lotincha centanarius "yuz vazn") kabilarni misol qilib aytsak bo'ladi.

Ko'pincha Islomda yangi sulolarning paydo bo'lishi, asosan, oltin (mitqol) va kumush (dirham) pul birligining kursi sohasida yangi metrologik standartlarning joriy etilishiga olib keldi.

Umaman olganda, o'ichovlar masalasida aniq xulosalarga tayanib ish ko'rilgan. Chunki o'ichovda oz bo'lsa ham yangilishish kimnidir haqiga xiyonat deb hisoblanardi. Bu esa musulmonlar hazar qiladigan va ehtiyot bo'ladigan tadbirlaridan biri deb sanaladi.

Payg'ambarimiz alayhissalom davrida eng mashxur, asosiy qayl (hajm, idish) o'ichov birliklari "mudd" bilan "So" bo'lgan. Boshqa barcha qayl o'ichovlari bu ikkisiga tayangan bo'lib, yo ularning bir bo'lagi yoki ko'paytirmasi sanaladi. Bir so'ning to'rt muddga teng ekaniga barcha ulamolar ittifoq qilishgan. Faqat, "mudd"ning miqdoriga esa ikki xil hisib mavjud. Jumxur ulamolar 1mudd=1,33 iroqiy ratl (554gr) deb hisoblashgan. Shunda, 1 so' =2,176kg bo'ladi. Faqat Abu Hanifa va bir guruh Iroq faqiqlari, 1mudd=2 iroqiy ratl(816gr), deganlar. Uzunlik o'ichov birliklarida Isba'o'rta qomatli odam barmog'ning qalinligi bo'lib, uning miqdori 1,925sm taqriban esa 2smga teng bo'ladi. Shibr(qarich) uning qiymati 23,1sm ga teng.

Bariyd – Hijoz o'ichov birligi bo'lib, arabchada "pochta" degan ma'noni bildiradi. Qadimdan ham pochta xizmatlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, har 12 mil masofadga tepalik barpo etilgan. Ularning har

bir tepalikda choparlar chopqir otlari bilan hozir turgan. Ular uchun esa uy va otxonalar qurilgan va uning qiymati esa 22,176 km masofani tashkil etgan.

Vazn o'lchov birliklari bo'yicha ham birliklar mavjud bo'lib, ulardan **fals** –mayda kumush tanga bo'lib, qiymati 0,0309 grni tashkil etadi. Xabbatush sha'iy nomi ostida bo'lib, o'rtacha kattalikdagi bitta arpa donining og'irligi va Xabbatul qamx esa o'rtacha kattalikdagi bitta bug'doy doni og'irligiga teng bo'lgan hamda qiymati esa 0,059gr tillaga teng bo'lgan.

Imom Abu Yusuf Ya'qub ibn Ibrohim Kufiy o'zining "Kitob al-xaroj"asarida – "Ma'danlarning o'lja sifatida ko'p miqdorda yoki kam miqdorda bo'ladimi ulardan beshdan bir ulush chiqariladi. Agar bir kishi ma'danlardan

ikki yuz dirhamdan kam miqdordagi kumush yoki yigirma misqoldan kam miqdorda oltin olsa, undan ham beshdan bir ulush olinadi va unga zakot emas, o'lja sifatida qaraladi" deya **misqol** og'irlik o'lchoviga ta'rif berib, u og'irlik o'lchov birligi bo'lib, uning qiymati esa 4,25gr.ga teng hisoblanadi.

Yana bir rivoyatda keltirilishicha Sariy ibn Ismoil Omir Sha'biydan rivoyat qilinadi: Umar ibn Xattob roziyallohu anhu Savodni o'lchadi, o'ttiz olti million **jarib**ni tashkil qildi. U ekinlarning har jaribiga bir dirham va bir **qafiz**, uzumzorlarning har biriga o'n dirham, xurmozorlarning har biriga besh dirhamdan soliq soldi. Kishilar esa, o'n ikki dirham, yigirma to'rt dirham yoki qirq irham jizya solig'i soldi".

Iyoz ibn G'anam Fihriy Jaziraning aholisiga jizya solig'i solib, kishi boshiga bir dinor, ikki mudd100 bug'doy, ikki qist 101 yog' va ikki kist sirka belgiladi va ularning barchasini bir tabaqaga xosladi. Bu narsa sulhning shartimi yoki o'zi belgilaganmi, faqihlarning so'ziga asoslanganmi yoki ishonchli isnoddan olganmi, menda bu haqda ma'lumot yuk

Mudd – sochiluvchan moddalar o'lchov birligi, 812 gr ga teng.

Kist – suyuqlik o'lchov birligi, 1 litr 680 gr ga teng.

Sariy Sha'biydan rivoyat qiladi: "Umar ibn Xattob roziyallohu anhu uzumzorlarga o'n dirham, xurmozorlarga besh dirham, ishlov berilgan yoki berilmaganidan qat'iy nazar suv yetib borgan har qanday yerlarga bir dirham va bir maxtum79 soliq soldi. Omir aytadi: "U maxtum hajjojiy bo'lib, xuddi so' kabidir". Yomg'ir bilan 80 sug'oriladigan xurmozorlarga ushr, sun'iy ravishda sug'oriladigan yerlarga yarim ushr soliq solindi. Xurmozorlarning tagidagi ishlov berilgan yerlarga esa hech qanday soliq solinmadi".

Maxtum – ochiluvchan moddalar o'lchov birligi, 3 kg 250 gr ga teng.

So' – sochiluvchan moddalar o'lchov birligi, 3 kg 250 gr ga teng.

Xuzayfa va ularning maydoni turlicha chiqdi. Usmon xiroj solig'i haqida yaxshi bilar edi. U yerlarni deboji o'lchovi bo'yicha o'lchadi. Juvxa aholisi yomon odamlar bo'lib, ular yerlarni o'lchashda Huzayfani aldadilar. O'sha vaqtda Juvxa gullab-yashnagan edi, o'lchov ishlaridan keyin esa xarobaga aylanib, suvlari quridi. O'lchash ishlarida Huzayfani aldaganlari uchun daromadlari kamayib ketdi".

Deboj o'lchovi – yerdagi suvlar, bog'lar va yaylovlarni kamrab oladigan juda aniq o'lchov.

"Odamlar qo'lida uzoq saqlanadigan mahsulotlarga esa va ratl o'lchov birliklarida o'lchanadigan bug'doy, arpa, guruch, tariq, donlar, kunjut, kanop, bodom, o'rmon yong'og'i, yong'oq, pista, za'faron, zaytun, yovvoyi za'faron, kashnich urug'i, zira, arpabodiyon, piyoz, sarimsoq piyoz va shu kabilar kiradi.

Agar yerdan olinadigan hosil besh vasaq va undan ko'prok bo'lib, oqar suv yoki yomg'ir yordamida sug'oriladigan yerda yetishtirilgan bo'lsa, ushr solig'i olinadi. Chelak, mesh va kudukdan suv tortadigan tuyalar yordamida sun'iy sug'oriladigan yerda yetishtirilgan bo'lsa, yarim ushr soliq olinadi. Agar yerdan olinadigan hosil besh vasaqdan kam bo'lsa, hech kanday solik olinmaydi.

Ratl – og‘irlik o‘lchov birligi. Ratl o‘lchovi tarixda turli hududlarda turlicha bo‘lgan, masalan, Irok ratli 406gramm, Shom ratli 875 gramm, Misr ratli 450 grammga teng bo‘lgan.

Vasaq – og‘irlik o‘lchov birligi, 195 kgga teng.

“Abon ibn Abu Ayyosh Hasan Basriydan, u Anas ibn Molikdan rivoyat qiladi: "Paygambar sollalloxu alayxi va sallam: "Besh vasaqdan kam miqdordagi bug‘doy, arpa, tariq, xurmo va mayizdan, besh uqiya 130dan kam miqdordagi hosildan va beshtadan kam tuyadan ham zakot olinmaydi”, deganlar”.

Yahyo ibn Abu Unaysa Abu Zubayrdan, u Jobir ibn Abdullohdan rivoyat qiladi: "Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam: "Besh vasaqdan kam miqdordagi hosildan zakot olinmaydi", deganlar.

Abu Yusuf aytadi: “Biz mana shunga asoslanamiz. Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam o‘lchaganlari asosida bir vasaq oltmish so‘ga, besh vasaq uch yuz so‘ga teng. Bir so‘ besh va uchdan bir ratlga teng (u esa hujjajiy qafizga, hoshimiy rubu‘ga va hoshimiy maxtumga teng. Birinchisi o‘ttiz ikki ratlga teng)

Uqiya – og‘irlik o‘lchovi birligi, 125 gr ga teng.

“Mansur Abu Voildan, u Abu Dardodan rivoyat qiladi: "Men o‘zim qilmasam ham sizlarni yaxshilikka buyuraman va bundan savob umid qilaman. Men uchun eng nafratlanadigan ish bu – menga qarshi faqat Allohdan yordam so‘raydigan kishiga zulm qilishimdir".

Bilginki, mazlumga nisbatan adolatli va insofli bo‘lish hamda zulm qilmaslik nafaqat savobli, balki xiroj solig‘ining ko‘payishi va shaharlarning obod bo‘lishiga xizmat qiladigan ishdir. Qayerda adolat hukm sursa, o‘sha yerda baraka bo‘ladi. Qayerda jabr-zulm hukm sursa, u yerdan baraka ko‘tariladi. Jabr-zulm orqasidan xiroj solig‘i kamayib, shaharlar xarobaga aylanadi. Umar ibn Xattob roziyallohu anhu xiroj ahliga adolat va insof bilan soliq solib, ularga zulm kilmasdan Savod yerlaridan yuz million dirham xiroj solig‘i olgan, o‘sha vaqtda bir dirhamning vazni bir misqolga teng edi.

Dirxam va misqol og‘irlik o‘lchovlari bo‘lib,

1 dirham – 3,12 gr, 1 misqol-4.25 grga teng. Mazkur jumlada esa o‘sha vaktida dirhamning vazni misqolga teng bo‘lganligi aytilyapti.

“Hasan ibn Umora Zuhriydan rivoyat qiladi: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: “Buloqning harimi 500 gaz, nozih quduqning harimi 60 gaz, a‘tan quduqning harimi – agar undan hayvonlar sugorilsa 40 gaz", deganlar”.

Ismoil ibn Muslim Hasandan rivoyat qiladi: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: “Kim quduq qazisa, uning atrofidagi 40 gaz yer hayvonlarni sug‘orish uchun unga tegishli bo‘ladi”, deganlar”.

Ash'as ibn Savvor Sha'biydan rivoyat qiladi: “Quduqning harimi u tomonidan ham, bu tomonidan ham 40 gaz bo‘ladi. Hech kimning quduq egasining ruxsatisiz uning harimiga kirib, suvidan foydalanishga haqqi yo‘q”.

Gaz – uzunlik o‘lchovi birligi, 46 sm ga teng.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYORLAR RO‘YXATI

1. Imom Abu Yusuf Ya‘qub ibn Ibrohim Kufiy. “Kitob al-xaroj”.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Bozor va unga bog‘liq masalalar.
3. Maqsudxo‘ja ibn Mansurxo‘ja. Majma‘-ul maqsud (Muxtasar ul-viqoyaning o‘zbekcha sharhi) II jild.
4. Хўжаёров, А. (2023). ЎРТА АСРЛАРДА НАСАФ ВОҲАСИ ИЛМИЙ–АДАБИЙ ҲАЁТИ. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 2 (7), 41-43.

5. Ходжаёров, А. О. (2023). Сомонийлар даврида Насаф шахрининг ижтимоий, иқтисодий ва маънавий ҳаёти. *Взгляд в прошлое*, 6 (1).
6. Хўжаёров, А. О. (2022). Қашқадарё воҳаси алломалари илмий меросининг аҳамияти. In *International conferences* (Vol. 1, No. 21, pp. 99-103).
7. Khojayorov, A. (2023). The scientific–literary environment of the Nasaf oasis in the middle ages. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 885-888.
8. Хўжаёров, А. (2022). Абу Райҳон Бегунийнинг “Ҳиндистон” асари ноёб этнографик манба сифатида. *Academic research in educational sciences*, (3), 399-411.
9. Asilbek, K. (2023). History of Sufism in Nasaf Oasis. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies* (2993-2599), 1 (6), 15-19.
10. Khojayorov, A. (2024). JURISPRUDENCE OF MUHAMMAD BAZDAWI (IX – XII CENTURIES). *Collection of scientific papers «SCIENTIA»*, (February 23 2024; Amsterdam, Netherlands), 188-191.